# V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish**

*(2023- yil yanvar-mart)*

| | mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Jamiga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| **Jami xizmatlar** | **4 035,3** | **112,7** | **100,0** |
| *shu jumladan:* xizmat turlari bo‘yicha | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmati | 217,5 | 129,4 | 5,4 |
| Moliyaviy xizmatlar | 813,8 | 128,0 | 20,2 |
| Transport xizmati | 682,7 | 107,6 | 16,9 |
| *shu jumladan:* avtotransport xizmatlari | 589,7 | 101,5 | 14,6 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 98,8 | 102,1 | 2,4 |
| Savdo xizmatlari | 1 253,6 | 107,1 | 31,1 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar | 101,6 | 103,7 | 2,5 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 201,3 | 158,6 | 5,0 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 91,8 | 106,2 | 2,3 |
| Ijara va prokat xizmatlari | 63,4 | 88,8 | 1,6 |
| Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari | 114,2 | 100,9 | 2,8 |
| Boshqa shaxsiy xizmatlar | 257,6 | 100,6 | 6,4 |
| Me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar | 37,9 | 99,0 | 0,9 |
| Boshqa turdagi xizmatlar | 101,1 | 104,5 | 2,5 |

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,1 %), transport xizmatlari (16,9 %) moliyaviy xizmatlar (20,2 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,9 %), sog‘liqni saqlash xizmatlari (2,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,4 %) tashkil etgan.

**2023- yil yanvar-mart oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi,** *(% da)*




2023- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 4 035,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 107,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 31,1 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 107,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar 128,0 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 20,2 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar 100,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa axborotlashtirish xizmati 129,4 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar 158,6 % ga oshgan bo‘lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi
5,0 % ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan xizmatlar tarkibi**

*(jami xajmga nisbatan, % da)*




**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi**

*(2023- yil yanvar-mart, mlrd.so‘m)*



**Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**
*(2023- yil yanvar-mart)*

| | Jami | | | Aholi jon boshiga | |
|---|---|---|---|---|---|
| | mlrd. so‘m | 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da | Ulushi % da | mlrd. so‘m | 2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, % da |
| **Viloyat jami** | **4 035,3** | **112,7** | **100,0** | **1 342,9** | **110,2** |
| Namangan sh. | 1 667,8 | 116,3 | 41,3 | 2 451,9 | 113,4 |
| Mingbuloq | 146,9 | 109,8 | 3,7 | 1 092,9 | 107,4 |
| Kosonsoy | 203,6 | 110,8 | 5,1 | 912,0 | 108,3 |
| Namangan t. | 210,1 | 112,2 | 5,2 | 1 113,5 | 109,5 |
| Norin | 179,8 | 110,5 | 4,5 | 1 039,7 | 108,3 |
| Pop | 253,3 | 108,7 | 6,3 | 1 092,9 | 106,6 |
| To‘raqo‘rg‘on | 267,6 | 113,7 | 6,6 | 1 114,4 | 111,0 |
| Uychi | 235,2 | 108,9 | 5,8 | 1 033,1 | 106,5 |
| Uchqo‘rg‘on | 190,4 | 109,5 | 4,7 | 1 045,5 | 107,3 |
| Chortoq | 214,6 | 110,2 | 5,3 | 1 018,2 | 107,9 |
| Chust | 267,4 | 109,8 | 6,6 | 954,2 | 107,8 |
| Yangiqo‘rg‘on | 198,6 | 109,1 | 4,9 | 853,1 | 106,5 |

**Shahar va tumanlar kesimida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga**
*(2023- yil yanvar-mart, ming so‘m)*



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’ati Namangan shahrida 1 667,8 mlrd. so‘m (112,7 %) va Chust tumanida 267,4 mlrd. so‘m (109,8 %)ga to‘g‘ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (2 451,0 ming so‘m), Mingbuloq tumanida ( 1 092,9 ming so‘m) va Namangan tumanida ( 1 113,5 ming so‘m) qayd etildi.

**2023- yil yanvar-mart oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi,** *mlrd. so‘m*




Yuqori o‘sish sur‘atlari ta’lim sohasidagi xizmatlar (158,6 %), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (129,4 %), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (102,1 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o‘rinni avtomobil transportida ko‘rsatilgan xizmatlar (86,4 %) egallaydi.Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy xajmining 13,0 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo‘yicha transport xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2023- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 73,5 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 20,4 % ga yetdi.

**2023- yil yanvar-mart oylarida transport turlari bo‘yicha transport xizmatlari tarkibi,** *% da*




Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste’mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,1 % ni egallaydi.




Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo‘shgan xolda

Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)

Avtomobil va matosikllardan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar